



## Approaches to safeguarding students from harmful ideological influences and ensuring information security

Mukhtor ABDURAKHMANOV<sup>1</sup>

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 15 December 2024

Available online

25 January 2025

**Keywords:**

Internet,  
internet network,  
social networks,  
globalization,  
information culture,  
computer games.

### ABSTRACT

The article emphasizes the significance of enhancing students' Internet literacy in the era of globalization, focusing on developing their spirituality and personal growth. It highlights the importance of refining Internet technologies and innovative methods to increase students' social engagement. Special attention is given to protecting young people from various ideological influences in the global information space and improving mechanisms to ensure information security.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss6-pp496-500>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Talabalarni zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash yo'llari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

Internet,  
internet tarmog'i,  
ijtimoiy tarmoqlar,  
globallashuv,  
axborot madaniyati,  
kompyuter o'yinlari.

Maqolada talabalarni ma'naviyatini globallashuv davrida internet-savodxonligini oshirishning ahamiyati, shaxs sifatida rivojlantirish va uning ijtimoiy faolligini oshirishda internet texnologiyalarini, innovatsion usullarini takomillashtirish, global axborot maydonida yoshlarni turli g'oyaviy ta'sirlardan himoyalash va axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

<sup>1</sup> PhD, Associate Professor, Department of Informatics, Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute.  
E-mail: mukhtor\_343@mail.ru

# Пути защиты студентов от вредных идеологических воздействий и обеспечения информационной безопасности

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

Интернет,  
интернет-сеть,  
социальные сети,  
глобализация,  
информационная  
культура,  
компьютерные игры.

В статье подчёркивается важность повышения интернет-грамотности студентов в эпоху глобализации для их духовного развития. Особое внимание уделено использованию интернет-технологий и инновационных методов для развития личности и повышения социальной активности. Также акцент сделан на совершенствовании механизмов защиты молодёжи от различных идеологических воздействий в глобальном информационном пространстве и обеспечения информационной безопасности.

## KIRISH

Globalizatsiya davrida axborot texnologiyalari rivojlanib, dunyo bo'ylab axborot almashinuvi tezlashmoqda. Ushbu jarayon yoshlar, xususan, talabalarining ongiga ijobiy va salbiy ta'sirlarni birdek olib kelmoqda. Zararli g'oyalar va zararli axborot ta'sirini kamaytirish, talabalarni himoya qilish masalasi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda axborot olamida Internet, internet-televizion, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bunday axborot vositalariga asosan talabalar juda katta qiziqish bilan qarashi va ulardan keng foydalanishini hisobga olsak, haqiqatdan ham, bu masalaning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamiz va xorijiy pedagog olimlarning tadqiqot ishlarida taqdim etilgan. Xususan, mamlakatimizda A.A. Abduqodirov, R.G. Sharipov, U.Sh. Begimqulov, R.D. Shodiyev, R.X. Djurayev, O.X. Turaqulov, M. Fayziyev, N.A. Muslimovlar va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlar olimlari axborot xavfsizligi to'g'risidagi zamonaviy ilmiy muhokamalarning va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining shiddatli rivojlanishi, ulardan ta'lim jarayonida foydalanish ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri muammolari bo'yicha A. Altufeva, T. Askirov, V. Bayburin, M. Brovkova, A. Gilmutdinov, V. Dikarev, D. Zegjda, V. YArchkin va boshqalar; masofaviy ta'lim tizimlarini tashkil etishda V. Olifer, A. Suvorinov, E.I. Mashbits, E.S. Polat, I.V. Robert, E.G. Skibitskiy va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Xorijiy davlatlarda ta'limni elektron ta'lim muhiti asosida takomillashtirish A. Bork, H. McLellan, J. Winslow, W. Olatokun, J. Hanson, B. Krouk, A.T. Mohr kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Bugungi kunda globallashtirilgan dunyoda, Internet yoshlarni kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurani hech kimga sir emas. Global tarmoq shiddat bilan rivojlanib, imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Har kuni virtual makonda bir necha milliondan ziyod axborot resurslarining paydo bo'lishi uning hajmi daqiqa sayin o'sib borayotganidan dalolat beradi. [1]

Ma'lumki, aholi o'rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimiga yana bir muhim vazifa – yoshlarni turli manbalardan, birinchi navbatda, Internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to'g'ri qabul qila olishga o'rgatish vazifasi yuklatilmoqda. [2]

**Zararli g'oyalar turlari:** Radikallik, ekstremizm, axloqsizlik targ'iboti, millatchilik, mafkuraviy manipulyatsiyalar.

**Ta'sir vositalari:** Internet, ijtimoiy tarmoqlar, video kontentlar, kompyuter o'yinlari.

**Oqibatlari:** Yoshlar ongida chalg'ituvchi fikrlar paydo bo'lishi, axloqiy qadriyatlar buzilishi, ijtimoiy izolyatsiya va ruhiy salomatlikka zarar yetishi.

Talabalarga har qanday axborotlarning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlardan to'g'ri foydalana bilishlari, tanlay olishlari va har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rgatishimiz zarur. Shu bilan birga, Internet, televidenie, kino, radio, video, mobil telefoni, turli ma'lumotlar aks etgan slayd va suratlar kabi aloqa va ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda. [4]

Mazkur jarayonda talabalarni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatib, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Talabalarning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir talaba aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Umuman, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri – yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlariga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlar ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi globallasuv jarayonida yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan, xususan, Internetdan foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga Internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratar ekan. Biroq bugungi kun talabiga ko'ra esa, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, muhim ahamiyat kasb etmoqda. [5]

Qayd etganimizdek, global axborot jamiyati shakllanishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, avvalambor, Internet bolalar va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omilga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya, internet-texnologiyalarining jamiyat hayotining barcha sohalariga keng miqyosida joriy etilishi yoshlarni axborot sohasidagi xavf-xatarlardan himoya qilish,

chetdan kirib kelayotgan mafkuraviy xurujlardan, ularning ongini buzg'unchilik ta'sirlaridan saqlash masalalarining dolzarbligini kuchaytirdi. Ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari foydalanuvchilari, video va kinomahsulot iste'molchilari ularning jismoniy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlarga duch kelayotgan holatlari uchramoqda.

Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun internet kitob yoki televizorga nisbatan axborot olishning bosh manbai bo'lib qoldi, aksariyat hollarda u o'qituvchi, tengqur do'stlari, hatto ota-onaning ham o'rnini bosmoqda [2]

Talabalarni internet tarmog'idagi "Referatlar katalogi", "YouTube", "Google", "Wikipedia", "Facebook", "Odnoklassniki", "Telegram" ijtimoiy tarmoqlar va turli saytlar qiziqtiradi. Ko'pchilik talabalar o'zining qimmatli vaqtlarini o'qish va o'quv materiallariga sarflamasdan telegram, feyzbuk, ijtimoiy tarmoqlarda har xil turdagi yozishmalar, videoroliklar va shunga uxshash saytlariga kiradilar. Ko'pchilik hollarda o'g'il bolalarga qaraganda qizlar o'quv materiallaridan foydalanishga qiziqadilar. O'qishdan tashqari ular zamonaviy modalar, musiqalarga juda qiziqadilar va ko'p vaqtini mashhurlar hayotini aks ettiruvchi resurslar va saytlarni o'rganishga sarflaydilar. Ijtimoiy tarmoqlarga o'g'il va qiz bolalar bir xilda qiziqish bilan qaraydilar. Ba'zi yoshlar internetni kim nimani xohlasa qilishi mumkin bo'lgan erkin makon deb hisoblaydilar. Bu ular uchun juda maroqli daqiqalar bo'lsada, lekin hamma yoshlar ham bu sohada bir xil fikrlashmaydi.

Shu boisdan ham, yoshlar uchun qator imkoniyatlar eshigini ochgan internetning foydasi bilan bir qatorda uning zarariga ham ko'z yuma olmaymiz. Internetda jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, shaxs, ayniqsa, hali ongi shakllanib ulgurmagani xuddi ana shunday yosh bo'g'inlarning dunyoqarashiga, g'oyaviy tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar ham oz emas.

Yoshlarning o'qishdan chalg'ib, bo'sh vaqtlarini internetda o'tkazishi ham ularning internet kasaliga chalinishiga sabab bo'lmoqda. Bundan ustalik bilan foydalanayotgan manfaatdor ijtimoiy-siyosiy kuchlar Internetda g'araz maqsadlarni amalga oshirmoqda. Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan "xavf tug'diruvchi va noxolis" axborotlardan saqlanishga o'rgatish, sara ma'lumotlarni topib foydalanishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak bo'ladi. Darhaqiqat, axborot makonida tahdidlar bor ekan, Milliy axborot makonimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Bu esa o'z navbatida, talabalarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'la oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Мухина С. А., Соловьева А.А. Нетрадиционные педагогические технологии в обучении. Ростов на Дону: Феникс, 2004. – 379 с.
2. Қуронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун тавсия). – Т.: "Маънавият", 2013. – 115 б.

3. Shadiev R.D. Methods and Forms to Ensure Understanding in Educational Process. / R.D. Shadiev // Eastern European Scientific Journal. DOI 10.12851/EESJ201805.www.auris-verlag.de

4. Ёзиева У.Л. Таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларни зарарли ахборотлар таҳдидидан ҳимоя қилишнинг такомиллаштирилган технологияси (бошланғич таълим мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Нукус, 2018. – 134 б.

5. Махкамов А.А., Жуманазаров С.С., Турсунова Ф.Р., Абдуллахўжаева М.А. Информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитиш методикаси модули бўйича ўқув – услубий мажмуа. Т., 2018, <https://giu.uz/wp-content/uploads/4.2-информатика.pdf>